

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, X.N.Qosimova</b> Kitobxonlik – buyuk kelajak kafolati.....	8
<b>T.A.Egamberdiyeva</b> Turkiy xalqlar milliy madaniyatlari shakllanishining ijtimoiy va etnopedagogik asoslari .....	13
<b>N.T.To‘xtaboyev</b> Balandlikka sakrovchi sportchilar tayyorlaydigan murabbiylar o‘rtasida anketa so‘rovnomasini tahlili .....	18
<b>I.B.Siddiqov</b> Tarixiy-badiiy asarlar bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida.....	25
<b>N.R.Gafurova, T.A.Egamberdiyeva</b> Ta‘lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadli pedagogik tizimi .....	28
<b>Sh.A.Mamajonov</b> Oliy ta‘lim muassasalarida ekologik tarbiyani amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish.....	32
<b>M.M.Kuzibayeva</b> Vrach-shifokorning pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan vazifalar.....	37
<b>K.R.Abdullayev</b> Xalq pedagogikasi vositasida o‘quvchilar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	39
<b>Sh.K.Xujamberdiyeva</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning zamonaviy texnologiyalari .....	43
<b>U.Q.Maqsudov, R.A.Abdullayev</b> Talabalarning ma‘naviy-axloqiy kompetentligini jadid pedagogikasi vositasida rivojlantirishning imkoniyatlari .....	48
<b>R.Z.Xayrov</b> Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-metodik tayyorgarligida pedagogik tashxis va baholash mezonlari.....	54
<b>G.U.Radjabova</b> Ta‘lim tashkilotining marketing strategiyasini shakllanishi.....	61
<b>Г.К.Якубова</b> Сравнительная динамическая двигательная потенциала детей с нормативными требованиями первой и второй возрастной групп тестов здоровья "Здоровье" .....	67
<b>M.M.Xamroliev</b> Fanlararo hamkorlik asosida o‘quvchilar bilimini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	73
<b>U.V.Mamadjanov</b> Maktabda musiqa fanini o‘qitishning metodologik asoslari .....	76
<b>S.X.Kaxxarov</b> Yoshlarda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari .....	80
<b>X.X.Tojiyev</b> Texnologik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda innovatsion ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash .....	85
<b>D.S.Sobirov</b> Ta‘limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning pedagogik jihatlari .....	92
<b>D.Z.Isaboyeva</b> Boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (Xalqaro baholash dasturi) .....	96
<b>F.Q.Yusupjanova</b> O‘qituvchining pedagogik qobiliyatlari va uning komponentlari .....	99
<b>X.A.Ustadjalilova</b> Pedagogik tadqiqotlar metodlari va statistik gipotezalarning nazariy jihatlari.....	102

**TARIXIY-BADIIY ASARLAR BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINING  
INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI  
SIFATIDA**

**ИСТОРИКО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ  
ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ  
ИСТОРИИ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР**

**HISTORICAL ARTISTIC WORKS FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATIONAL AND  
ANALYTICAL COMPETENCE OF FUTURE HISTORY TEACHERS AS AN IMPORTANT  
FACTOR**

**Siddiqov Ilyosjon Baxromovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg‘ona davlat universiteti falsafa kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada tarixiy manbalar va qo‘llanmalardan tarixning asosiy ilmiy dalillarining o‘zlashtirilishi, tarixiy-badiiy asarlar orqali esa, uning mohiyati va ahamiyatini yanada to‘liq, chuqur anglatilishi orqali bo‘ljak tarix o‘qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье необходимо развивать информационно-аналитическую компетентность будущих учителей истории через усвоение основных научных свидетельств истории из исторических источников и пособий, а через историко-художественные произведения - через более полное и глубокое понимание ее сущности и значение.*

**Abstract**

*In this article, it is necessary to develop the informational and analytical competence of future history teachers through the assimilation of the main scientific evidence of history from historical sources and manuals, and through historical-artistic works, through a more complete and deep understanding of its essence and importance.*

**Kalit so‘zlar:** milliy yuksalish, yangicha tafakkur, informatsion-analitik ko‘nikma, bo‘ljak tarix o‘qituvchilari, kompetentlik, tarixiy-badiiy asarlar, tarixiy dalil, birlamchi va ikkilamchi manbalar.

**Ключевые слова:** национальное развитие, новое мышление, информационно-аналитические способности, будущие учителя истории, компетентность, историко-художественные произведения, исторические свидетельства, первичные и вторичные источники.

**Key words:** national development, new thinking, informational and analytical skills, future history teachers, competence, historical and artistic works, historical evidence, primary and secondary sources.

**KIRISH**

Bugungi kunda milliy yuksalish g‘oyasi asosida ijtimoiy taraqqiyotga erishish, buyuk ajdodlarimizning boy tarixiy merosi asosida jamiyatning tarixiy ongini shakllanishi yuzaga kelmoqda. Ana shunday buyuk merosni o‘rganish orqaligina tom ma‘noda yoshlar ma‘naviy qiyofasini shakllantirish mumkin. Bunday merosni esa tarix orqali o‘zlashtirish mumkin. Chunki bunday merosni o‘rganmasdan turib, bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarimizni muvaffaqiyatli yakunlash mumkin emas.

O‘zbekistonda tarix faniga bo‘lgan munosabat davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimiz tarixini yangicha tafakkur bilan xolis va ilmiy jihatdan puxta o‘rganish, uni tahlil etishda birlamchi manbalarga tayanish muhimligi tobora zarurartga aylanmoqda. Bu esa tarixchilar oldiga jiddiy vazifalarni qo‘ymoqda. Ayni muammo haqida gapirar ekan, Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun tarixni yaxshi o‘rgatish, bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligini ta‘kidlab, jumladan, shunday deydi: "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aksholda uning tarbiyaviy ta‘siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur"[1:288].

«Tarix hamma narsaga chidaydi. Ammo o‘zini soxtalashtirishga aslo chiday olmaydi»[5:34]. Zero, tarixni o‘rganish bizning tafakkurimizni charxlaydi, o‘tmish tarixidan faxrlanish, yo‘l qo‘yilgan xatolardan kelajakda xoli bo‘lish imkonini beradi. «Tarixni o‘rganish – deydi XVIII asrning buyuk nemis ma‘rifatparvari Fridrix Shiller, – aqlimizni nurlantiradi, qalbimizni olijanob fidoyilik bilan

alangalantiradi. U ruhimizni axloqiy masalalarga pastkashlik va bachkanalik bilan yondashishdan saqlaydi»[8:83-84].

Tarix fanining vazifasi o'quvchi-talabalarga quruq raqambozlik, solnomachilikni o'rgatishdan iborat emas, aksincha uning mazmunini o'zlashtirish orqali yoshlarni ijtimoiy hodisalarni mustaqil anglashga, mamlakatimiz rivojining barcha sohalariga faol va ijodiy tarzda ishtirok etishga, umuman olganda informatsion-analitik ko'nikmalarga tayyorlashdan iborat bo'lishi lozim. Mazkur vazifa o'z tabiatidan kelib chiqib, fikrlashni rivojlantirish, talabani o'rganilayotgan voqea va zamonaviy jamiyat hodisalarini mustaqil anglay olishini talab etadi. Buningsiz ularni to'g'ri baholay olish, o'z munosabatlarini zarur harakatlarga yo'naltirish mumkin emas. Mana shuning uchun bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish tarix ta'limining bosh sharti va vositasi tavsifini o'zida ifoda etadi. Bu yerda gap «Tarix» fanini o'qitish jarayonida talabalarni ko'p yillik o'tmishimizni yaxlitligicha idrok etishlari, uning butun mohiyatini anglab yetishlari va xolisona baholay olishlari haqida borayapti. Chunki mazkur fanlarni chuqur o'zlashtirish talabalarni tarixiy voqelikni to'g'ri idrok etish, uni tushuna olish, ana shu asosda fikr yuritishga o'rgatish, yaxlitlikda shaxsda tarixiy-analitik tafakkurni rivojlantirishga imkon beradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy sharoitda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari falsafiy, psixologik-pedagogik va metodik yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. O'zbek olimlaridan O.G'.Davlatov, A.F.Ismailov, Q.R.Shonazarovlar bo'lajak tarix o'qituvchilarining o'quvchi-yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirishga tayyorlash va metodik tayyorgarlik ishlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlar olib borishgan. B.A.Abdikarimov, A.M.Abdirov, G.D.Baubekova, V.I.Andreyev, S.D.Yakusheva, I.A.Zyazyuna, N.N.Nikitina, G.V.Bragina, V.V.Davidov, V.YE.Jabakov, L.V.Zanina, N.P.Menshikov, M.V.Korepanova, I.D.Lushnikova, I.P.Rachenko, V.P.Simonov, N.N.Tarasevich, I.F.Krivosos, S.B.Yelkanov, Y.N.Kulyutkinlar ta'lim oluvchilarning ilmiy ijodini tashkil etish, uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida ilmiy ijod jarayoni rivojlanishining samarali metodlarini ishlab chiqishgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish haqida gap borganda, tarixiy-badiiy asarlarga murojaat etmaslik mumkin emas. Mazkur fikrni A.Ibrohimovning «Bizkim o'zbeklar... Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar» risolasida ta'kidlab o'tganidek, «To'g'ri, tarix fani manbalarga tayangan holda aniq dalillar bilan o'tmish voqeligini bayon qiladi. Biroq gap inson dunyoqarashini shakllantirish haqida ketar ekan, bunga erishish ilmiy adabiyotlardan ko'ra, yozuvchi O.Balzak asarlarida aniqroq tasvirlangani e'tirofli bo'lganini misol qilib keltirish mumkin»[2:8]. Ana shu sababli bo'lajak tarix o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishda badiiy adabiyotlarga ham e'tiborsizlik bilan qarab bo'lmaydi. Chinakam ma'nodagi tarixiy-badiiy asarlar aniq tarixiy voqeliklarni chuqur mulohaza qilgan holda yoziladi. Faqat badiiy asarga qo'yiladigan talablardan kelib chiqqan holda, to'qima obrazlar kiritilishi mumkin. Masalan, tarix ta'limida «O'rta Osiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi» mavzusini o'rganishda yozuvchi Yavdat Ilyosovning «So'g'diyona» romani bilan tanishish orqali talaba tarixiy voqelik to'g'risida kengroq tasavvurga ega bo'lishi mumkin[3:330]. Romanni o'qish orqali talabada Vatan ozodligi uchun kurashgan jasorat sohibi Spitamenning qahramona kurashi tasviri asosida harbiy vatanparvarlik tuyg'usi yana-da, rivojlanadi.

Shuningdek, «O'zbekiston tarixi»dan «Chingizxon bosqini»ni o'rganish jarayonida talabalar Temur Malik va Jaloliddin Manguberdlarning dushmanga qarshi kurashda ko'rsatgan jasoratlarini alohida qiziqish bilan o'rganishadi. Talabalardagi tarixiy voqelikni o'rganishga doir qiziqishni yanada, orttirish uchun «Jaloliddin Manguberdi» kitobining «O't va suv orasida» deb nomlangan qismini[4:26-30] hamda Mirmuhsinning «Timur Malik» romanidan parchalar o'qishni mustaqil ish sifatida berish va talabalar tomonidan o'quv loyihalari, taqdimotlarning tayyorlanishi maqsadga muvofiq[6].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, talaba tarixiy manbalar va qo'llanmalardan asosiy ilmiy dalillarni o'zlashtirishsa, badiiy asarlar orqali uning mohiyati va ahamiyatini yanada, to'liq, chuqur anglash orqali o'z tarixiy tafakkurini boyitadi. Chunki darsliklar aniq dastur asosida yozilgan bo'lib, ularda tarixiy voqelikning butun tafsilotini qamrab olish imkoniyati kam. Masalan, «O'zbekiston tarixi»da 1365–1366-yillarda Samarqandda faoliyat yuritib, vatanparvarlik harakatini o'zida namoyon etgan «Sarbadorlar harakati» haqida ma'lumot keltirilgan. Mavzuni

o'rganish jarayonida talabalarning darslikdagi ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasliklari uchun yozuvchi Muhammad Ali tomonidan yozilgan «Sarbadorlar» tarixiy romanini mustaqil o'qishga jalb etish mazkur tarixiy voqelikka doir kemptiklini to'ldirishga xizmat qiladi[7].

Talabalarning nafaqat o'zbek, balki chet el yozuvchilarining milliy tariximizga doir asarlarini o'qib-o'rganishlari ularda ma'lum bir tarixiy jarayonga doir ma'lumotlarni qiyosiy o'rganish, tahlil etish asosida informatsion-analitik tafakkur yuritish malakasini rivojlantiradi. Masalan, Sohibqiron Amir Temurga bag'ishlangan yangi – ozarbayjon yozuvchisi Yunus O'g'uz qalamiga mansub «Amir Temur» romanini o'qish orqali talaba boshqa asarlarda uchramaydigan fikrlar, tarixiy dalillar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi[9].

Shuningdek, jahon tarixini o'rganish jarayonida talabalar o'rta asrlar davlatlarida amalga oshirilgan urushlar va qo'zg'olonlar bilan tanishib borishar ekan, ularning ongida «Nega o'rta asrlarda va umuman insoniyat tarixida bunchalik urushlar ko'p bo'lgan ekan?!» degan savol tug'iladi. O'qituvchi mazkur savolga javob berishda O'tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» asarida keltirilgan quyidagi qatradan javob sifatida foydalanishi mumkin: «Insoniyat tarixi – urushlar tarixidan iborat. Ertaklarda – urush. Dostonlarda – urush. Kitoblarda – urush. Kinolarda – urush... Tabaqalar urushi. Fuqarolar urushi. Mamlakatlar urushi. Jahon urushi. Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda so'nggi olti ming yil ichida Yer kurrasida 5700 marta urush bo'lgan ekan. (Mayda-chuyda qabilalar janjali bu hisobga kirmaydi)...» [10:21].

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga doir mustaqil faoliyatni tashkil etishda tarixiy manba bilan ishlashga doir guruhviy ish shakllarini qo'llash yaxshi samara beradi. Ma'lumki, boshqalarga o'rgatganda o'zing hamma narsani osonroq o'rganasan. Bir-biriga o'rgatish strategiyasi ana shundan kelib chiqqan, u barcha talabalarga o'qituvchining o'rnida bo'lish va boshqalarni tarixiy manba ustida ishlashga yo'naltirish imkoniyatini berish maqsadida ishlab chiqilgan. Axboriy matn bilan ishlaganda, bu strategiyani qo'llash yaxshi natija beradi.

### XULOSA

Bo'lajak tarix o'qituvchisi tarixiy dalilni ikkilamchi manbalarda berilgan ma'lumotlar, birlamchi manbalar (qoyatosh yozuvlari, tarixchilarning asarlari, afsona, rivoyatlar)dan keltirilgan parchalardan oladi. Biroq ana shu manbalar ustida ishlash talabadan alohida tayyorgarlikni, o'ziga xos qobiliyat va ko'nikmani taqozo etadi. Shuning uchun avvalo ularda manbalarning ahamiyati to'g'risidagi tasavvurni hosil qilish zarur. YA'ni har qanday tarixiy manba, qay darajaligidan qat'iy nazar, ulkan tarixiy yodgorlik hisoblanadi va o'z davrining mohiyatini aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, manba o'zida tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy voqelikni mujassam etadi. Zotan, har qanday manba o'z davrining mazmuni va hukmron g'oyalari mohiyatining ko'zguosidir. Shu bilan birga bo'lajak tarix o'qituvchilarida haqiqiy hayot hamisha har qanday dalil, hujjat yoki manbadan ko'ra kengroq mazmunga ega bo'lishi haqidagi nuqtai nazarni qaror toptirish lozim. Bo'lajak tarix o'qituvchilarida manba bilan ishlash jarayonida mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayon, uning oqibatida yuzaga kelgan voqeliklar hamda uning mantig'i, mazmuni va mohiyati manbadan ko'ra kengroq ekanligini nazarda tutib, uning qanchalik to'liq bo'lmasin, nisbiy ekanligini unutmazlikka o'rgatilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tarix o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirish maqsad va vazifalari, o'qitish mazmuni, talabalarning bilish imkoniyatlarini kutiladigan natijaga mos ravishda loyihalash va rejalashtirish mazkur jarayonning metodik jihatdan samaradorligini kafolatlaydi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
2. Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar... Milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar. – T.: Sharq, 1999.
3. Ilyosov Y. So'g'diyona. – T.: Sharq, 1994.
4. Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2008.
5. Mavrulov A. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
6. Mirmuhsin. Temur Malik. – T.: Sharq, 1996.
7. Muhammad Ali. Sarbadorlar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
8. Yo'ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Yangi va eng yangi davr G'arbiy Yevropa falsafasi. – T.: Sharq, 2002.
9. Yunus O'g'uz. Amir Temur. – T.: Yangi asr avlodi, 2013.
10. Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Sharq, 2001.